

Jismoniy shaxsga avtomobil sotib olishga kredit

KREDIT SHARTNOMASI

20__yil “___” _____

№_____

_____ shahri

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining _____ filiali (keyingi o‘rinlarda – Bank) boshqaruvchisi _____ Nizom va Ishonchnoma asosida faoliyat yuritib, bir tomondan, va jismoniy shaxs _____ (keyingi o‘rinlarda – Qarzdor/mijoz), ikkinchi tomondan, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdik.

1-§. Shartnoma predmeti

1. Bank O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan avtomobilni sotib olishga kredit berish majburiyatini, Qarzdor/mijoz esa olingan kreditni belgilangan muddatda qaytarish va kreditdan foydalanganlik uchun foiz to‘lash majburiyatini oladi.

2. Bank Qarzdor/mijozga _____ avtomobili sotib olish uchun ushbu
(*avtomobil markasi*)

Shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida _____ (_____) so‘m kredit beradi.

3. Bank Qarzdor/mijoz arizasi asosida _____

[*ishlab chiqaruvchining rasmiy dileri (avtosalon)*]

_____ hisobvarag‘iga kreditga sotib olinayotgan avtomobil uchun to‘lovni
yoki sotuvchi-komissioner]

pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiradi.

4. Qarzdor/mijoz tomonidan olingan kredit hisobini yuritish uchun Bank unga tegishli kredit hisobvarag‘i ochadi.

2-§. Shartnoma qiymati

5. Kreditdan foydalanganlik uchun Qarzdor/mijoz Bankka yillik _____ foiz hisobidan kreditning amaldagi qoldig‘iga hisoblangan foizni to‘laydi.

Kredit ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq o‘z vaqtida qaytarilmasa, muddati o‘tgan qarzdorlik uchun yillik _____ foiz hisobidan foiz hisoblanadi.

6. Kredit bo‘yicha foizlar Bank tomonidan har kuni ushbu Shartnomaning 5-bandida belgilangan foiz stavkasi bo‘yicha berilgan sanadan boshlab amaldagi kunlar sonidan kelib chiqqan holda Qarzdorning/mijozning kredit hisobvarag‘i qoldig‘iga nisbatan hisoblab boriladi va har oyning 11-sanasida undiriladi.

Kredit to‘lovi dam olish kunlariga to‘g‘ri kelsa, hisoblangan foizlarni to‘lash dam olish kunidan keyingi birinchi bank ish kunida, dam olish kunlarda hisoblangan foizlarni hisobga olgan holda, amalga oshiriladi.

Kredit foizlari bo'yicha to'lov muddati o'tgan qarzdorlik vujudga kelganda, Qarzdor/mijoz to'lov muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun muddati o'tgan foiz qiymatining 0,5 foizi, biroq muddatida to'lanmagan foiz qiymatining 50 foizidan oshmagan, miqdorda penya to'laydi, penya to'lanishi Qarzdorni/mijozni muddati o'tgan foizni to'lashdan ozod qilmaydi.

3-§. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

7. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- a) Qarzdorning/mijozning to'lovga layoqatlilik qobiliyatini yanada to'laroq tahlil qilish uchun undan qo'shimcha hujjatlar talab qilish;
- b) kreditlash davrida Kredit byurosidan Qarzdor/mijoz va kafil haqida kredit hisoboti olish;
- v) Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu shartnomaga bo'yicha asosiy qarzni qaytarish va (yoki) hisoblangan foizni to'lash muddati buzilganda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o'z talabnomasini Qarzdorga/mijozga yetkazish;
- g) talabnomaga yetkazilgandan so'ng o'ttiz kun ichida Qarzdor/mijoz unda ko'rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, tegishli talab bilan sudga murojaat qilish;
- d) kredit va unga hisoblangan foizlar belgilangan muddatda so'ndirilmaganda, qarzdorlikni kafildan undirish;
- e) kredit va unga hisoblangan foizlar belgilangan muddatda so'ndirilmaganda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga asosan, Qarzdorning/ mijozning bank plastik kartasi maxsus hisobvarag'i va boshqa depozit hisobvaraqlarida turgan pul mablag'ini to'lov talabnomasi yoki memorial order vositasida aksepsiz tarzda yechib olish orqali kredit qarzdorligini qoplash.

8. Qarzdor/mijoz quyidagi huquqlarga ega:

a) kredit summasi _____

[ishlab chiqaruvchining rasmiy dileri (avtosalon) yoki sotuvchi-komissioner]

hisobvarag'iga o'z vaqtida o'tkazib berilishini Bankdan talab qilish;

b) Bankning ruxsatini olgan holda kreditni muddatidan oldin qaytarish.

9. Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- a) kreditni Qarzdorga/mijozga 20__ yil "__" _____ dan 20__ yil "__" _____ gacha bo'lgan muddatga berish;
- b) Qarzdorga/mijozga o'z vaqtida kredit hisobvarag'i ochish;
- v) Qarzdor/mijoz tomonidan kredit ajratilishiga oid shartlar [sotuvchi-komissioner, komitent va qarzdor/mijoz o'rtasida tuzilgan oldi-sotdi shartnomasini notarial tasdiqlatish (avtomobil ikkilamchi bozordan olinganda), o'z mablag'i bilan qatnashish, kredit ta'minoti sifatida kreditga sotib olinayotgan avtomobilni (yoki boshqa mulknii) garovga qo'yish va garov shartnomasini notarial tasdiqlatish, garov qo'yilgan avtomobilni (yoki avtomobil o'rniga garovga qo'yilgan boshqa mulknii) kreditdan foydalanishning butun davriga yo'l-transport hodisasi holati va boshqa noxush holatlardan sug'urtalash] bajarilgandan so'ng, avtomobil qiymatini to'liq miqdorda _____

[ishlab chiqaruvchining rasmiy dileri (avtosalon) yoki sotuvchi-komissioner]

hisobvarag‘iga o‘tkazib berish;

g) Qarzdorning/mijozning talabi bo‘yicha kredit hisobvarag‘ining holatiga oid ko‘chirmani taqdim qilish;

d) kreditni muddatidan oldin undirish omili va sabablari haqida Qarzdorni/ mijozni xabardor etish;

e) kredit bo‘yicha muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda qarzdor/mijoz zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida ushbu qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 kalendar kuni davomida har qanday aloqa bog‘lash usulidan, shu jumladan elektron aloqa vositasidan foydalanib, qarzdorga/mijozga muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida kreditni qaytarish grafigini ilova qilgan holda xabar berish;

yo) Qarzdorni/mijozni ushbu shartnama bo‘yicha muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlikni qaytarish majburiyatlari bajarilmaganligi holati, muddati, qiymati, tarkibi va oqibatlari haqida xabardor qilish, qarzdordan/mijozdan muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelishi sabablari haqida so‘rash;

j) Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu shartnama bo‘yicha asosiy qarzni qaytarish va (yoki) hisoblangan foizni to‘lash muddati buzilganda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o‘z talabnomasini qarzdorga/mijozga yetkazish.

10. Qarzdor/mijoz o‘z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) kredit ajratilgunga qadar quyidagi shartlarni bajarish: sotuvchi-komissioner, komitent va qarzdor/mijoz o‘rtasida tuzilgan oldi-sotdi shartnomasini notarial tasdiqlatish (avtomobil ikkilamchi bozordan olinganda), o‘z mablag‘i bilan qatnashish, kredit ta’minoti sifatida kreditga sotib olinayotgan avtomobilni (yoki boshqa mulkni) garovga qo‘yish va garov shartnomasini notarial tasdiqlatish, garov qo‘yilgan avtomobilni (yoki avtomobil o‘rniga garovga qo‘yilgan boshqa mulkni) kreditdan foydalanishning butun davriga yo‘l-transport hodisasi holati va boshqa noxush holatlardan sug‘urtalash;

b) kredit ob‘ekti to‘lovi uchun pul mablag‘i o‘tkazilgandan so‘ng 10 kalendar kunlik muddat ichida kreditdan maqsadli foydalanilganligini tasdiqlovchi hujjatni (qabul kilish/topshirish dalolatnomasini) Bankka taqdim qilish (avtomobil ikkilamchi bozordan olinganda).

v) kredit bo‘yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizlarni o‘z vaqtida, ya’ni ushbu Shartnomaning ilovasida keltirilgan “Kreditni qaytarish va foiz to‘lovi grafigi” bo‘yicha so‘ndirish;

g) Garov reestriga yozuv kiritishga o‘zining yozma roziligi taqdim etish;

d) kreditga sotib olingan avtomobil ushbu kredit bo‘yicha garovga olingan bo‘lsa, yaqin qarindoshlaridan [er (xotin), ota-onा, aka-uka, opa-singil, farzandlar] tashqari boshqa uchinchi shaxsga ushbu avtomobilni boshqarish uchun ishonchnoma bermaslik;

e) yashash joyi, ish joyi, familiyasi yoki ismi va ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlar bajarilishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlarga oid o‘zgarishlar to‘g‘risida axborotni 5 (besh) bank ish kuni mobaynida Bankka taqdim etish.

4-§. Tomonlarning javobgarligi

11. Tomonlar ushbu Shartnoma shartlarini bajarmaganda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi va jarimaga tortiladi.

5-§. Nizolarni hal qilish

12. Tomonlar ushbu Shartnomadan kelib chiquvchi nizolarni muzokara yo'li bilan hal etishning barcha zarur choralarini ko'rish majburiyatini oladi.

13. Nizoni muzokara yo'li bilan hal etishning imkonni bo'lmasa, u O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq fuqarolik sudida hal qilinadi.

6-§. Shartnomaning boshqa shartlari

14. Ushbu Shartnomaning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

14-1. Bank qarzdor/mijoz uchun ushbu shartnoma bo'yicha asosiy qarzni qaytarishning va hisoblangan foizni to'lashning masofadan turib amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

15. Qarzdor/mijoz vafot etganda uning huquq va majburiyatları O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

16. Mazkur Shartnoma u imzolangan kundan boshlab to Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu Shartnoma majburiyatları to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

17. Mazkur Shartnomaning bekor qilinishi tomonlarni u bekor qilingunga qadar bildirilgan o'zaro da'volarni (talablarni) qondirish majburiyatidan ozod qilmaydi.

18. Ushbu Shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda tuzilib, tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolanganda qonuniy kuchga ega bo'ladi.

19. Mazkur Shartnomada ko'zda tutilmagan holat yuzasidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari qo'llaniladi.

7-§. Tomonlarning pochta manzili va rekvizitlari

Bank:	Qarzdor/mijoz:
Manzili: _____	Manzili: _____
Tel.: _____ Faks: _____	Telefon: _____
Bank kodi: _____	Tug'ilgan sanasi: _____
Bank hisobvaragi: _____	STIR: _____
STIR: _____	Pasport: seriya _____ № _____
Boshqaruvchi: _____	Qachon va kim tomonidan berilgan _____ (imzo)
Muhr	